



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 3

2026

SON KOMPONENTLI O'ZBEK XALQ MAQOLLARINING LINGVISTIK VA STATISTIK TAHLILI

Samandarova Gulnoz Yarashovna
Buxoro davlat universiteti, dotsent, PhD

Annotatsiya

shbu maqolada o'zbek xalq maqollarida uchraydigan son komponentlarining lingvistik xususiyatlari va statistik ko'rsatkichlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda sonlarning nafaqat miqdor ifodalovchi birlik sifatida, balki semantik, stilistik va lingvomadaniy element sifatida qo'llanishi yoritiladi. O'zbek maqollarida eng ko'p uchraydigan son birliklari aniqlanib, ularning semantik funksiyasi, obrazlilik yaratishdagi o'rni hamda xalq tafakkuri bilan bog'liq jihatlari ko'rib chiqiladi. Statistik tahlil natijalari ayrim sonlarning maqollarda yuqori chastotada qo'llanishini ko'rsatadi. Bu esa ularning xalq dunyoqarashi va madaniy qadriyatlar tizimidagi muhim o'rnini tasdiqlaydi.

Kalit so'zlar: son komponenti, o'zbek xalq maqollari, lingvistik tahlil, statistik tahlil, semantika, lingvomadaniyat, xalq og'zaki ijodi.

ЛИНГВИСТИЧЕСКИЙ И СТАТИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ЧИСЛОВЫХ КОМПОНЕНТОВ В УЗБЕКСКИХ НАРОДНЫХ ПОСЛОВИЦАХ

Самандарова Гулноз Ярашовна
Бухарский государственный университет, доцент, PhD

Аннотация

В данной статье анализируются лингвистические и статистические особенности числовых компонентов в узбекских народных пословицах. В исследовании числа рассматриваются не только как количественные единицы, но и как семантические, стилистические и лингвокультурные элементы. Определяются наиболее часто употребляемые числовые единицы в узбекских пословицах, а также анализируется их роль в создании образности и их связь с народным мышлением. Результаты статистического анализа показывают, что некоторые числа обладают высокой частотностью употребления в пословицах, что подтверждает их важное значение в системе культурных ценностей и мировоззрении народа.

Ключевые слова: числовой компонент, узбекские народные пословицы, лингвистический анализ, статистический анализ, семантика, лингвокультура, фольклор.

LINGUISTIC AND STATISTICAL ANALYSIS OF NUMERICAL COMPONENTS IN UZBEK FOLK PROVERBS

Samandarova Gulnoz Yarashovna
Bukhara State University, Associate Professor, PhD

Abstract

This article analyzes the linguistic and statistical characteristics of numerical components in Uzbek folk proverbs. The study examines numbers not only as quantitative units but also as semantic, stylistic, and linguocultural elements. The most frequently occurring numerical units in Uzbek proverbs are identified, and their role in creating figurativeness as well as their connection with folk thinking is analyzed. The results of the statistical analysis demonstrate that certain

numbers occur with high frequency in proverbs, which confirms their significant role in the system of cultural values and the worldview of the people.

Keywords: numerical component, Uzbek folk proverbs, linguistic analysis, statistical analysis, semantics, linguoculture, folklore.

O'zbek xalq maqollari xalqning ko'p asrlik tajribasi, dunyoqarashi va ma'naviy qadriyatlarini mujassamlashtirgan qisqa, lo'nda va mazmunan chuqur folklor birliklaridan biridir. Maqollar tilning semantik boyligini, xalq tafakkurining obrazli ifodasini hamda ijtimoiy tajribani avlodlardan avlodga yetkazuvchi muhim kommunikativ vosita hisoblanadi. Folklor matnlarida son komponentlarining qo'llanishi xalq tafakkurining muhim lingvistik mexanizmlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Xususan, maqollarda son birliklari ko'pincha aniq miqdoriy ma'noni ifodalashdan ko'ra umumlashtirish, tajribani qisqa va lo'nda shaklda ifodalash hamda nutqning ta'sirchanligini oshirish vazifasini bajaradi. Shu jihatdan sonlar maqollarning semantik strukturasini shakllantiruvchi muhim komponentlardan biri hisoblanadi. Ular orqali xalq og'zaki ijodida turli ijtimoiy munosabatlar, axloqiy me'yorlar, hayotiy tajribalar va didaktik qarashlar ramziy shaklda ifodalanadi. Bunday birliklarning lingvistik tahlili til tizimidagi son kategoriyasining funksional imkoniyatlarini aniqlashga xizmat qiladi.

Shuningdek, son komponentli maqollarni statistik jihatdan o'rganish xalq og'zaki ijodidagi ayrim sonlarning faol yoki kam qo'llanish darajasini aniqlash imkonini beradi. Bu esa sonlarning nafaqat grammatik birlik sifatidagi xususiyatlarini, balki ularning semantik va lingvomadaniy yuklamasini ham ochib beradi. Statistik tahlil orqali ma'lum son birliklarining maqollarda takroriy qo'llanishi aniqlanib, ularning xalq tafakkuri va madaniy stereotiplari bilan bog'liqligi oydinlashadi. Shu sababli son komponentli maqollarni lingvistik va statistik yondashuv asosida o'rganish o'zbek folklori va tilshunosligining dolzarb masalalaridan biri sifatida qaraladi.

Maqollarning tarkibiy tuzilishida turli leksik birliklar qatnashadi. Shular qatorida son komponentlari alohida o'rin tutadi. Sonlar maqollarda nafaqat miqdorni ifodalash, balki umumlashtirish, mubolag'a qilish, obrazlilik yaratish va xalqona hikmatni kuchaytirish vazifasini bajaradi. Shu sababli son komponentli maqollarni lingvistik va statistik jihatdan o'rganish xalq tafakkuri va til tizimi o'rtasidagi munosabatlarni aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda o'zbek xalq maqollari to'plamlaridan son komponenti ishtirok etgan maqollar tanlab olindi. Ularni tahlil qilishda quyidagi metodlardan foydalanildi: lingvistik tahlil metodi; semantik tahlil; statistik hisoblash usuli; qiyosiy tahlil.

Statistik hisoblash orqali maqollarda uchraydigan sonlarning chastotasi aniqlanib, ularning funksional xususiyatlari baholandi.

O'zbek xalq maqollarida sonlar turli semantik va stilistik vazifalarni bajaradi. Ular ko'pincha umumlashtirish, qiyoslash, mubolag'a yoki ramziy ma'no ifodalash uchun ishlatiladi. Masalan: "Bir yigitga qirq hunar oz", "Yetti o'lehab, bir kes", "Bir bolaga yetti mahalla ota-ona".

Bu maqollarda sonlar real miqdorni ko'rsatishdan ko'ra ko'proq ramziy yoki stilistik ma'no kasb etadi. Masalan, "qirq" soni ko'pincha ko'plik va mukammallik ramzi sifatida qo'llanadi, "yetti" esa qadimiy madaniyatlarda muqaddas yoki mukammal son sifatida talqin etiladi.

Lingvistik nuqtayi nazardan son komponentlari maqollarda quyidagi funksiyalarni bajaradi:

1. Miqdor ifodalash funksiyasi. Ayrim maqollarda sonlar real miqdorni bildiradi. Masalan: "Bir kun urush bo'lgan joydan qirq kun baraka ketadi".

2. Mubolag'a (giperbola) yaratish funksiyasi. Sonlar fikrning ta'sirchanligini oshirish uchun ishlatiladi. Masalan: "O'g'ri bitta, gumon mingta".

3. Obrazlilik va ritmik tuzilish yaratish. Sonlar maqolning sintaktik va ritmik tuzilishini mustahkamlaydi.

Son komponentli maqollarning statistik tahlili. Statistik metod tilshunoslikda nisbatan yangi bo'lishiga qaramay, bugungi kunda samarali ilmiy yondashuvlardan biri sifatida e'tirof etiladi. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab til hodisalarini faqat tavsifiy yoki izohiy usullar bilan emas, balki matematik va statistik modellar asosida o'rganish zarurati yuzaga keldi. Bunga sabab til tizimi ko'p sonli birliklardan tashkil topgan murakkab va takrorlanuvchi tuzilma ekanligidir. Shuning uchun ham til birliklarining qo'llanish darajasi, takrorlanish chastotasi hamda ularning o'zaro munosabatlarini miqdoriy ko'rsatkichlar orqali aniqlash tilshunoslik tadqiqotlarining ilmiy aniqligini oshiradi. Statistik yondashuv til birliklarining faol yoki passiv qo'llanish darajasini belgilash, ularning funksional imkoniyatlarini ochib berish hamda til tizimidagi qonuniyatlarni aniqlashga xizmat qiladi.

Raqam komponenti ishtirok etgan maqollarni statistik tahlil qilish jarayonida bir qator ilmiy mezonlarga tayanildi. Avvalo, maqol tarkibida son birliklarining mavjudligi va ularning mustaqil semantik yuklamaga egaligi asosiy mezon sifatida belgilandi. Bunda son birliklari faqat grammatik ko'rsatkich sifatida emas, balki maqol mazmunini shakllantiruvchi semantik markaz sifatida qatnashgan holatlar tanlab olindi. Masalan, "Bir bosh – balo bosh, ikki bosh – qozon osh" maqolida "bir" soni yolg'izlik va muammoli holatni, "ikki" esa hamjihatlik va baraka g'oyasini ifodalaydi. Bu yerda son komponentlari nafaqat miqdoriy birlik, balki semantik qarama-qarshilikni hosil qiluvchi asosiy element sifatida namoyon bo'ladi.

Ikkinchi mezon sifatida sonlarning morfologik shakli va ularning maqol tarkibidagi struktur o'rni hisobga olindi. Maqollarda son birliklari ba'zan sodda shaklda (bir, ikki, uch), ba'zan esa hosila yoki kengaygan shakllarda (ikkov, to'rtovlon, mingta) uchraydi. Tahlil jarayonida sonlarning aniq yoki umumiy miqdor bildirishi, shuningdek ularning aniqlik darajasi ham e'tiborga olindi. Masalan, "Bir odam ariq qaziydi, ming odam suv ichadi" maqolida son va ot birikmasi orqali subyekt – harakat – natija munosabati ifodalangan bo'lib, bu strukturada son komponenti semantik markaz vazifasini bajaradi.

Uchinchi mezon maqollarning variantlilik xususiyati bilan bog'liqdir. Xalq og'zaki ijodi namunalari sifatida maqollar turli hududiy yoki nutqiy variantlarda uchrashi mumkin. Shu sababli statistik hisob-kitob jarayonida bir maqolning turli variantlari ham inobatga olindi. Masalan, "Bir qo'ydan ikki teri shilinmaydi" hamda "Bir odamdan ikki foyda chiqmaydi" maqollari mazmun jihatidan bir-biriga yaqin bo'lib, ular son komponentining umumiy semantik vazifasini saqlagan holda turli shakllarda qo'llanadi.

O'zbek xalq maqollarining semantik va lingvokulturologik tizimini o'rganishda son komponentlarining qo'llanish chastotasini aniqlash muhim ilmiy ahamiyatga ega. Chastota tahlili orqali xalq tafakkurida qaysi son birliklari faolroq ishlatilishi, ularning ramziy yoki semantik yuklamasi qanchalik muhim o'rin egallashi aniqlanadi. Tadqiqot doirasida 1 dan 1000 gacha bo'lgan son birliklari qatnashgan jami 860 ta maqol tahlil qilindi. Tahlil uchun materiallar "Ma'nolar maxzani", "O'zbek xalq maqollari" (Toshkent, 1987), "Oltin meros" to'plamlari hamda boshqa xalq og'zaki ijodi manbalaridan tanlab olindi.

Har bir maqolda son komponentining mavjudligi alohida qayd etilib, ular tizimli ravishda saralandi va qayta ishlanib, umumiy chastota (frekventsia) tahlili amalga oshirildi. Son komponentlari o'zbek xalqining tarixiy, diniy va madaniy qarashlari bilan ham bog'liqdir. Masalan, qadimiy turkiy tasavvurlarda yetti va qirq sonlari muqaddas sonlar hisoblangan. Ular turli marosimlar, afsonalar va folklor namunalari bilan chambarchas bog'liq. Shu sababli son komponentlari maqollarda xalq dunyoqarashining muhim belgisi sifatida namoyon bo'ladi. Ular orqali xalq tajribasi, axloqiy qadriyatlar va ijtimoiy normalar ifodalanadi.

Son komponentlari o'zbek xalq maqollarida nafaqat til birliklari sifatida, balki xalqning tarixiy tajribasi, madaniy qadriyatlari va mental tasavvurlari bilan bog'liq lingvomadaniy belgilar sifatida ham namoyon bo'ladi. Xususan, ayrim sonlar xalq tafakkurida muayyan ramziy ma'nolarni ifodalab, ularning semantik doirasi oddiy miqdor ifodasidan ancha kengayadi.

Masalan, “bir” soni ko‘pincha birlik, yagona markaz yoki boshlanish g‘oyasini anglatadi. Shu sababli u ko‘plab maqollarda umumlashtirish va qarama-qarshi qo‘yish vositasi sifatida ishlatiladi. “Yetti” soni esa qadimiy turkiy tasavvurlarda mukammallik, tugallanganlik yoki muqaddaslik ramzi sifatida qaralgan bo‘lib, bu semantik xususiyat folklor matnlarida ham o‘z ifodasini topgan. Shuningdek, “qirq” soni o‘zbek xalqining marosimiy va diniy an‘analari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, u ko‘pincha ko‘plik, uzoq vaqt yoki muayyan davrni ifodalovchi ramziy birlik sifatida qo‘llanadi. Masalan, xalq og‘zaki ijodida “qirq kun”, “qirq yigit”, “qirq eshik” kabi obrazlar keng tarqalgan bo‘lib, ular xalq tasavvuridagi ijtimoiy va madaniy stereotiplarning shakllanishida muhim rol o‘ynaydi. Shu jihatdan son komponentlari maqollarda xalqning kollektiv xotirasi, qadimiy e‘tiqodlari hamda ijtimoiy tajribasini aks ettiruvchi lingvomadaniy kod sifatida namoyon bo‘ladi.

Xulosa. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek xalq maqollarida son komponentlari muhim lingvistik va semantik funksiyalarni bajaradi. Ular nafaqat miqdorni ifodalovchi grammatik birlik sifatida, balki stilistik va madaniy element sifatida ham faol qo‘llanadi. Ular maqollarning mazmuniy tuzilishini mustahkamlash bilan birga, fikrning obrazli va ta’sirchan ifodalanishiga xizmat qiladi. Statistik tahlil natijalari ayrim son birliklarining maqollarda yuqori chastotada uchrashini ko‘rsatdi. Bu holat mazkur sonlarning xalq tafakkurida muayyan ramziy va madaniy ahamiyatga ega ekanligini tasdiqlaydi. Shuningdek, son komponentli maqollarni o‘rganish xalq og‘zaki ijodining semantik tizimini chuqurroq anglash imkonini beradi. Bunday tadqiqotlar orqali sonlarning til tizimidagi funksional imkoniyatlari, ularning lingvomadaniy mazmuni hamda xalq tafakkuridagi o‘rni aniqlanadi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, son komponentli maqollarni lingvistik, statistik va lingvomadaniy jihatdan kompleks o‘rganish o‘zbek tilshunosligida muhim ilmiy yo‘nalishlardan biri bo‘lib, kelgusida bu boradagi tadqiqotlarni yanada kengaytirish zarurligini ko‘rsatadi. Statistik tahlil natijalari ayrim sonlarning, xususan bir, ikki va ming sonlarining maqollarda yuqori chastotada uchrashini ko‘rsatdi. Bu esa ularning xalq tafakkuri, madaniy an‘analari va ramziy qarashlari bilan bog‘liqligini tasdiqlaydi. Shunday qilib, son komponentli maqollarni o‘rganish nafaqat lingvistik, balki lingvomadaniy, statistik tadqiqotlar uchun ham muhim ilmiy ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Шомаксудов Ш., Шорахмедов Ш. Хикматнома. – Т.: Совет Ўзбек Энциклопедияси бош редакцияси, 1990. – 526 б.
2. Шомаксудов Ш., Шорахмедов Ш. Маънолар махзани. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2018. – 480 б.
3. Bozorov Z.A International scientific and practical conference “Modern psychology and pedagogy: problems and solutions” “Imperial College London” 2021-2022. 165-169 б.
4. Bozorova G. Formation of abbreviations in medical terminology in uzbek language //Центральноазиатский журнал образования и инноваций. – 2024. – Т. 3. – №. 3. – С. 86-89.
5. Samandarova G. Y. Fundamentals of folk proverbs formed on the basis of the lexical-spiritual group of insects. Current research journal of philological sciences, 2 (05), 39–42. – 2021.
6. Samandarova G. Y. (2023). Basis of the lexical sentence group "insect" in the form of a compound sentence. International scientific conference " innovative trends in science, practice and education", 2(4), 59–67. Retrieved from <http://academicsresearch.ru/index.php/iscitspe/article/view/1493>
7. Bozorov Z. A. "Exceptional role of motives and needs within the formation process of civic culture in students' community." Journal of Advanced Zoology 44 (2023): 3236-3244. <https://jazindia.com/index.php/jaz/article/view/1595>
8. Samandarova G.Y., Yusupova A.Sh. Specific characteristics of paremas formed on the basis of “Insect” LMG in a simple sentences // Best journal of innovation in science, research and development. Volume 2 No 6 (Jun 2023). ISSN: 2835-3579 .(Impact factor: SJIF=9.1)
9. Samandarova G.Y. Sodda gap ko‘rinishidagi “hasharot” lug‘aviy ma’no guruhlari asosida shakllangan paremalarning o‘ziga xos xususiyatlari // Scientific reports of Bukhara state university. 2023/1 (84). –B. 161-165.